

O'ZBEKISTON XALQ SHOIRI SIROJIDDIN SAYYIDNING IJODI VA “ONAMNING KALISHLARI” SHE'RINING ARAB TILIGA TARJIMASI

Jurayev Sherzod Norovich

Oriental universiteti o'qituvchisi.

Ma'rufjonov Muhammadkarim

Oriental universiteti iqtidorli talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning hayoti va ijodi haqida qisqa ma'lumot berili, ijodkorning “Onamning kalishlari” she'rlari arab tiliga ijodiy yondashib tarjima qilindi.

Kalit so'zlar: Sariosiyo, Senator, Hoshim ibn Ismoil, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Hadis.

Bugun ko'hna Surxon vohasining bepoyon osmonidan yog'gan beg'ubor yomg'irlardan, bag'rikeng alpomishzoda surxonliklarning mehr yomg'iridan, ustozlarning beg'araz o'gitlari yomg'iridan bahra olib xalqning sevimli shoiri, haqparvar va xalqparvar o'g'lon bo'lib kamolga yetgan ardoqli ijodkorimiz haqida so'z boradi.

Sirojiddin Sayyid O'zbekiston xalq shoiri, senator, yozuvchilar uyushmasi raisi, 1958-yil 30-oktabrda Surxandaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi Kundajovuz qishlog'ida tug'ilgan. Inson bolasiga zamin-tug'ilgan tuprog'i taft beradi, osmondagi oy, quyoshi esa boshi uzra kecha-kunduz mehr nurlarini sochadi. Bejiz, mumtoz tilimizda quyoshning yana bir nomi Mehr deb ayilmagan. Cheksiz osmonlarni uyim-uyim bo'lib qaylargadir men ko'rmagan, bilmagan zangor olalarga ketayotgan oppoq bulutlarni tomosha qilishni yaxshi ko'rardim. O'sha-bulutlar ketayotgan sirli makonlarni, sog'inib yashardim..... deb eslaydi shoir yoshligini.

Sirojiddin Sayyid Toshkent universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan (1979). Mehnat faoliyati Toshkent oqshomi (1980-1989), Mushtum jurnalida (1990-1991), adabiy xodim, bo'lim mudiri O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi boshqaruvida rais o'rribosari (2001-2003), birinchi o'rribosari (2003 yildan), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi bo'lib ishlagan.

Siyosiy faoliyati, 2020-yil 11-sentabrda O'zLidep siyosiy kengashiga tasdiqlandi. 2020-yilning 18-yanvarida O'zbekiston prezidenti SHavkat Mirziyoyev Sirojiddin Saidovni Oliy Majlis Senatori etib tayinlash to'g'risidagi farmonga imzo chekdi.

Ijodkorning asarlariga keladigon bo'lsak, Ruxim xaritasi (1985), Salqin xarsanglar (1987), Sevgi mamlakati (1987), Salqin harsanglar kaftida (1987), Mehr

qolur, muhabbat qolur (1990), Mangu rizq (1990), Kuydim (1994), Vatanni o'rganish (1996), Vatan abadiy (2001) Ustimizdan o'tgan oylar (2003) asarlarini yozganlar.

Sirojiddin Sayyid she'riyatida o'zbek mumtoz she'riyati an'analari bilan birga xalq og'zaki ijodiga xos xususiyatlar-xalqchilik, soddalik, tilning shiraligi, Surxondaryo shevasiga xos leksik va musiqiy tovlanishlar yetakchilik qiladi. Ayni paytda Sirojiddin Sayyid o'z ijodida o'zbek she'riyatining so'nggi badiiy yantuqlarini o'zlashtirgan holda hozirgi voqelikda va kishilarning ruhiy olamida yuz berayotgan o'zgarishlarni aks ettirmoqda. Sirojiddin Sayyid o'zbek tiliga A.Voznesenskiy, B.Axmadulina, V.Visotskiy, A.Faynberglarning ko'plab she'rлarini tarjima qilgan. Rossiya, Ozarbayjon, Koreya, Tojikiston, va Turkmanistonda chop etilgan.

Ijodkorning yantuqlari haqida aytib o'tadigon bo'lsak, "Do'stlik ordeni" (1999), "O'zbekiston Xalq shori" "Mexnat shuxrat" ordeni(1985) lari bilan taqdirlangan.

Xalqimizda "Til bilgan – el biladi" degan maqol bor. Bugungi kunda yoshlarning chettillaridan bir nechtasini o'rganishi juda dolzarb bo'lib qoldi. Sababi, til bilgan bolalar zamonaviy texnologiyalarni yaxshi o'zlashtiradi, internet imkoniyatlaridan foydalanadi, dunyodan xabardor bo'ladi.

Har bir tildagi sherning o'z qofiyasi ma'no mazmuni va darajasi bo'lganidek, bu sherning ham mohiyati bor. Har bir tarjimon biror asarni sherni tarjima qilish jarayonida uning ma'nosini saqlagan holda har bir so'zga e'tibor berish kerak. Tarjimonning til borasida bilimi yaxshi bo'lsada, unda sherni mohiyatini ma'nosini qofiyasini tushuna bilish kerak. Biz esa shu jixatlarini hisobga olgan holda mazmunan to'g'ri tarjima qilishlikka xarakat qildik.

E'tiborlisi shundaki, tarjima qilish jarayonida o'zbek tilidagi o'xshash so'zlar va arab tili boy til bo'lganligi bois undagi ma'nodosh so'zlardan foydalanishga harakat qilindi. Bu ishda bizga misrlik ustozimiz va dargohdagi arab tili ustozlar beqiyos yordam berdilar. Ularga o'z minnatdorchiligidagi bildiraman. Tarjima qilish jarayonida bu sherni misrlik ustozimiz Hoshim ibn Ismoil **الجنة تحت أقدام الأمهات** "Jannat onalar oyog'i ostidadir" hadisiga asoslanib yozilganligini e'tirof etib o'tdilar.

ONAMNING KALISHLARI

Buncha ham qattiq ekan
Qismatning bolishlari.
Ko'z oldimdan ketmas xech
Onamning kalishlari.

Ular ham go'yo meni
O'rtanib o'ylagaylar
Qissalar so'ylagaylar
Baxtu baxtsizligimdan

Ular ostonasida
Turar bir juft abgorday.
Ko‘zimga butun dunyo
Ko‘rinadi aybdorday.

Yashaydirman garchi qo‘l,
Yuzlarini sog‘inib.
Kalishlari daxlizda
Turaverar og‘rinib.

Dardimni yashirgayman
Onam xolim xolim so‘rganda.
Kalishlari valekin
Barin bilib turganday.

Garchi tilsiz, zabonsiz,
Xomush, beozordaylar.
Bor dardu xijronimdan
Ular xabardoydaylar.

Onamning ko‘zyoshidan
Bo‘lsa bolishlari nam.
Nazаримда kechalar
Yig‘lar kalishlari xam

Sog‘inchning devorlari
Yomg‘irlarda yemirilgan
Ular ham onam kabi
Yo‘llarimga termulgan.

Mol yig‘madim men, ammo
Suv so‘rganga soy berdim.
Bir ko‘nglim bor edi, lek
Men uni ham boy berdim

Bu dunyoda nixoyat
Bir xikmatni ilg‘adim.
Kalishlarni yuzimga
Bosib, kelar yig‘lagim.

Onamning kalishlari...
Bir umrlik qarzimday.
Pataklni ko‘zimga
Surtib o‘lsam arzigay

جَدَاءُ أَمِي
مَا أَصْعَبُ وسَادَةُ الْقَدَرِ
جَدَاءُ أَمِي أَمَامَ نَاظِرِي
عَلَى عَنْتَهُ الْبَابِ رَوْجُ مِنْ جَدَاءِ أَمِي
وَأَنَا أَرَى الدِّينِيَّكَ هَذَا الْجَدَاءُ الْبَالِيُّ

وَدَا إِمَا أَشْتَاقُ إِلَى حَنَانِ أَمِي
وَنَظَرَةُ عَيْنَهَا لِي
الآن يَقْفَعُ الْجَدَاءُ بَالِيَا حَزِينًا مِنَ الدِّينِيَا
كُلُّ أَحْفَى كُلُّ هُمُومِي وَمَشَاكِلِي عَنْ أَمِي

لَكَنَّ حَدَا هَا يَعْرُفُ كُلُّ شَيْءٍ عَنِي
وَلَكِنَّهَا كَائِنَتْ تَعْرُفُ كُلُّ هُمُومِي دُونَ كُلِّ
عِنْدَمَا تَكُونُ وسَادَةُ أَمِي مُبْلَلَةً مِنْ دُمُوعِ أَمِي

فِي ذَلِكَ الْوَقْتِ كَانَ جِدَاءُهَا يَبْكِي
أَيْضًا حُزْنًا عَلَى أَمِي
كَائِنُتْ دَامًا شَغَّفَرُ عَنِي وَمَازَ الْأَثْ شَغَّافُ عَنِي
شَحْكِي الْحَكَائِيَّاتِ عَنْ حُزْنِي وَسَعَادَاتِي
أَشْتَاقُ لِكَ يَا أَمِي

دُوْمَرْ جَدَارُ الْمَحَبَّةِ وَالْأَسْتِيَاقِ تَحْتَ الْمَطَرِ
وَالْجَدَارُ كَانَ يَتَنَظَّرُنِي كَلْتَنَظَارُ أَمِي

لَمْ أَجْمَعُ الْمَالَ ذَاتَ يَوْمٍ
وَلَا كُنْ أَجْوَدُ بِالسَّيْلِ لِمَنْ يَسْأَلُنِي الْمَاءَ
عَلَيِ الرَّغْمِ مِنْ إِمْتِلَاكِي قَلْبًا وَاحِدًا
لَا كِنْتِي فَقَتْ تَهُ
وَأَخْيُرًا فَهُمْتُ حِكْمَتَ الدُّنْيَا

وَأَرِيدُ الْبَكَاءَ وَاضِعًا جَدَاءُ أَمِي عَلَى وَجْهِي
جَدَاءُ أَمِي دِينِي عَلَيَّا طُولًا الْحَيَاةَ
أَمْوَاتُ مُسْتَحِقُّ وَضَعَ فَرْشَ جَدَاهَا عَلَى وَجْهِي

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. An-Naim arabcha o'zbekcha lug'at kitobi.Toshkent 2003
«Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi» nashriyoti
2. Gulxan adabiy-badiiy jurnali. 1-sон 2023-yil
3. Vikipediya
4. Ilmlar.uz
5. Arboblar.uz